

Date: 5<sup>th</sup> November-2024

XOTIN-QIZLAR O'RTASIDA ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISH SOHASIDA  
AMALGA OSHIRILGAN ISLOXOTLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI

Qo'chqorov Bexzod Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 319-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, xotin-qizlar o'rtasida sodir etilayotgan zo'ravonlik turlari, ularning sabab va shart-sharoitlari, xotin-qizlar o'rtasida zo'ravonlikni oldini olish tushunchasi, profilaktikasining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, hamda xotin-qizlar o'rtasida zo'ravonlikni oldini olish sohasida amalga oshirilgan isloxlarning samaradorlik ko'rinishlari. Shuningdek, profilaktika inspektori xotin-qizlar o'rtasida zo'ravonlikni oldini olish faoliyatini tashkil etishda vujudga keladigan muammolar va ushbu sohasini rivojlantirishga doir takliflar yoritib berilgan.

**Аннотация:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что виды насилия, совершаемого среди женщин, их причины и условия, концепция предотвращения насилия среди женщин, сущность и особенности его предотвращения, эффективность реформ в области профилактики насилия над женщинами. Также освещены проблемы, возникающие при организации мероприятий по предотвращению насилия среди женщин и предложения по развитию данной области профилактики.

**Ilmiy maqolaning dolzarbligi:** Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks choratadbirlarni, xususan aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, «ommaviy madaniyat» ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalari mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasi» kabi dolzarb vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa, ichki ishlar organlari faoliyatiga ilg'or ish usullarini joriy etish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida 2021 yil 2 aprelda qabul qilingan "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 5050-sonli Qarorni qabul qilishda



Date: 5<sup>th</sup> November-2024

profilaktika inspektorining fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonliklarni oldini olish faoliyatining samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Mahalla huquq-tartibot maskani — mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ 561-sonli hamda 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli Qonunlar ham bu borada asosiy dasturilamal hisoblanadi.

Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyoti, xususan ichki ishlar organlari faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri, huquqbuzarliklarning oqibati bilan qarshi kurashish emas, balki ularning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish, har bir jinoyatning adolati va haqiqatini ta'minlashdan iboratdir. SHuning uchun ham, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shu sababli hozirda Ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish belgilandi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish olish faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, turli tahdid va tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, xususan, oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishning ma'naviy, huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mazkur qonun hujjatlari talablari asosida inson huquq va erkinliklarini, oila manfaatlarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni har qanday ko'rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha respublika «Oila» ilmiyamaliy markazi, Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviyaxloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi, O'zbekiston «YOshlar ittifoqi» kabi maxsus institutlar tashkil etilib, ularning faoliyati takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev: «Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z



Date: 5<sup>th</sup> November-2024

joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda»<sup>5</sup>, – deb ta’kidlagan edi.

- Xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarliklari profilaktikasini tashkil etish chora-tadbirlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan hayotiy chora-tadbirlarga bo’lgan ehtiyojning mavjudligi;

- Xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarliklari profilaktikasini tashkil etish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda uchrayotgan muammo va kamchiliklarni o’rganish, tadqiq etish hamda ularni bartaraf etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati;

- Hududda amalga oshirilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurash va ularni barvaqt profilaktikasi xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini samaradorligini oshirish maqsadida aniq vazifalarni belgilashga bo’lgan ehtiyoj;

- Xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo’yicha faoliyatini muvofiqlashtirish uchun tadqiqot va so’rovlar o’tkazish, natijalarini tahlil qilish va ular yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratining mavjudligi;

-Huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarlikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini taminlash, jamoatchilik huquqiy ongi, dunyoqarashini yuksaltirishda huquqiy targ’ibotlashviqot jarayoni samaradorligini oshirishda Xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini yanada takomillashtirishning dolzarb vazifa bo’lib turganligi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xotin-qizlarga e’tibor sezilarli darajada oshdi. Hususan, respublikamiz xotin-qizlarning ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda faol ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko’prog’ini tashkil etayotgan xotin-qizlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, Davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Jumladan, fikrimizni O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida fuqarolarning jinsi, millati, diniy e’tiqodidan qat’iy nazar teng huquqli ekanligi, 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli ekanligi, 128-moddasida saylash va saylanish huquqlarining kafolatlanganligi bevosita tasdiqlaydi.

SHuni ta’kidlab o’tish joizki, xotin-qizlarimizning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilganini va hozirda ham bu jarayon davom etayotganligiga qaramay, oila gavhari bo’lmish xotin-qizlar tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilishi juda ham ayanchli holdir.

“Hozirgi zamon xotin-qizlar o’rtasidagi huquqbuzarlikga kriminalogik tavsif berishda erkaklar va ayollarning agressiv xulqatvorida jiddiy farqlar mavjudligiga, jumladan, maniakal-seksual hususiyatga ega bo’lgan qotilliklar xotin-qizlar uchun, hatto har xil ruhiy kasalliklarga ega shaxslar uchun ham qoidadan ko’ra ko’proq istisno

<sup>5</sup> Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // Халқ сўзи. –24-сон Т., 2017. – 16 июнь.



Date: 5<sup>th</sup> November-2024

ta'riqasidagi holat hisoblanadi. YUridik amaliyotda bunday turdagi agressiya namoyon bo'lgan holatlar kamdan-kam uchraydi. SHunda ham ular asosan ayollar guruhining bezorilik yo'nalishdagi harakatlariga tegishli bo'lib, surunkali hususiyatga ega bo'lmaydi. Mazkur masalani aniqlash yo'lidan borib, biz balki bu vaziyat potensial huquqbuzarlik sodir etish jarayonida ayollarning erkaklarga nisbatan jismoniy zaifligi bilan izohlanadi, degan taxmini ilgari surdik.

Kriminologiyada ayollar o'rtasida huquqbuzarlikningning oldini olishning ikkita turi mavjud: umumijtimoiy va maxsus – kriminologik. Bunda birinchi va ikkinchi turga mansub chora – tadbirlar huquqbuzarlikni profilaktika qilishning bir nechta bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi bosqichda jamiyat hayotining yirik ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni hal qilish, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish va boshqa shunga o'xshash chora – tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ikkinchi bosqich esa nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan va salbiy hodisalar sodir bo'lishi kutilayotgan muayyan ijtimoiy tabaqalarga ya'ni mikromuhitga profilaktik ta'sir ko'rsatish chora – tadbirlarini qamrab oladi.

Uchinchi bosqichda shaxs shakllanishining noqulay sharoitlariga tushib qolgan yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning qadriyatlarini va qarashlari tizimini ijobiy tomonga o'zgartirishga yo'naltirilgan individual tarbiya – profilaktika ishlarini amalga oshirish, ularning g'ayriijtimoiy qarashlari va moyilliklarini yengish, qonun va umum e'tirof etilgan ijtimoiy xulq – atvor normalariga nisbatan hurmatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Ayollar o'rtasida huquqbuzarlikni profilaktika qilish choratadbirlarini ishlab chiqishda uning mintaqaviy hususiyatlarini ham e'tiborga olish, uni mana shu hususiyatlardan kelib chiqib, prognoz qilish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu ayollar o'rtasida huquqbuzarlikni profilaktika qilishning ob'yektivligi darajasini yanada oshiradi. Zero, hozirda, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri jinoyat sodir etishga moyil, ma'muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo'lgan g'oyalar ta'siriga tushib adashgan shaxslarni ijtimoiylashuvi, shu jumladan kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Profilaktika inspektorining xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish bo'yicha quyidagi muammolar o'rganildi:

1. Hozirgi paytda himoya orderi jabrlanuvchi sifatida berilgan xotinqizlar tomonidan huquqbuzar sodir qilgan erkaklarga nisbatan, qasddan, ularning himoya orderi ta'qiqlarni buzishiga olib keluvchi sun'iy vaziyatni yaratishi orqali, ularning ushbu vaziyatning “qurboniga” aylantirib, ma'muriy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lib qolayotganlik holatlarining ko'payganligi;

2. Hozirda ayollar tomonidan sodir etilayotgan ayrim toidagi huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlari o'rganilganda, ularning, turmush o'rtog'i bilan janjallashib, o'z



Date: 5<sup>th</sup> November-2024

uyiga kelib o'tirgan xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotganligi kuzatilyapti. Bunday xotin-qizlar esa mahalla tomonidan ko'pchilik holatda e'tiborsiz qoldirilayotganligi, ular bilan ishlash choralarning yo'lga qo'yilmayotganligini sababli huquqbuzarliklarning soni oshayotganligi.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish yo'nalishiga doir nazariyani boyitishga qaratilgan takliflar:

1. Tazyiq va zo'ravonliklardan himoyalovchi orderi, uni berish tartibi to'g'risidagi normativ-huquqiy xujjatlariga, agarda, jabrlanuvchi sifatida himoya orderi olgan xotin-qizlar qasddan huquqbuzarning himoya orderining ta'qiq va cheklovlarini buzishiga olib keluvchi sun'iy vaziyatni yaratganlik holatlari bo'lsa, xotin-qizga berilgan ximoya orderini bekor qilishlik yoki uning o'ziga nisbatan chora ko'rishlik bo'yicha MJTKning 206<sup>1</sup>- moddasiga qo'shimcha bandlar kiritish hamda bu haqida himoya orderi berish jarayonida ikkala tomonni ham ogohlantirish tartibini joriy qilish.

2. MJTKning 190-moddasida ko'rsatilayotgan huquqbuzarlikni sodir qilgan xotin-qizlarni joylashtirish uchun oldin mavjud bo'lgan maxsus teri-tanosil kasalliklarini davolovchi-profilaktik dispanserlarni qayta tiklash hamda MJTKning 190-moddasi sanksiya qismiga ushbu dispanserga joylashtirish va uning muddatini chora sifatida kiritish

